



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**2024- yil yanvar-avgust oyi
uchun dastlabki ma'lumot**

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(62) 224-65-09***



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-avgust oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 535,3 mln AQSH dollarini tashkil qildi va 2023- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 59,6 mln AQSH dollariga yoki 10,0 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust 2024- yil, mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **535,3** -10,0 %

(2023- y.: **594,9**)



Saldo

2024- y.: **-56,8** (2023- y.: **-176,6**)




Eksport

2024- y.: **239,3** +14,4 %

(2023- y.: **209,2**)


TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **296,0** -23,3 %

(2023- y.: **385,8**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 239,3 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 14,4 % ga ko‘paydi) va import hajmi 296,0 mln AQSH dollariga (23,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 56,8 mln AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

Rossiya TSA – 119 303,5 Eksport: 55 712,6 Import: 63 590,8  22,3 %	Braziliya TSA – 91 902,5 Eksport: 7,5 Import: 91 895,0  17,2 %	Pokiston TSA – 73 976,1 Eksport: 73 465,4 Import: 510,7  13,8 %	XXR TSA – 46 618,6 Eksport: 9 592,6 Import: 37 026,0  8,7 %	Afg‘oniston TSA – 32 733,7 Eksport: 32 733,7 Import: 0,0  6,1 %
Turkiya TSA – 31 029,4 Eksport: 18 541,3 Import: 12 488,1  5,8 %	Qozog‘iston TSA – 22 560,1 Eksport: 17 953,1 Import: 4 607,0  4,2 %	Islandiya TSA – 22 530,9 Eksport: 1,0 Import: 22 529,9  4,2 %	Eron TSA – 20 264,4 Eksport: 8 209,4 Import: 12 055,0  3,8 %	Belarus TSA – 18 124,8 Eksport: 3 484,7 Import: 14 640,2  3,4 %

Xorazm viloyati jahonning 133 mamlakat bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (22,3 %), Braziliyada (17,2 %), Pokistonda (13,8 %), XXRda (8,7 %), Afg‘onistonda (6,1 %) va Turkiyada (5,8 %) qayd etilgan.



XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	99 640,2	97 257,5	119 303,5
 Eksport	59 925,6	55 465,6	55 712,6
Import	39 714,6	41 791,9	63 590,9
Braziliya	123 770,5	125 003,2	91 902,5
 Eksport	0,6	1,2	7,5
Import	123 769,9	125 002,0	91 895,0
Pokiston	6 006,3	54 882,5	73 976,1
 Eksport	5 775,6	54 610,6	73 465,4
Import	230,7	271,9	510,7
XXR	77 917,6	77 377,8	46 618,6
 Eksport	7 745,6	7 243,9	9 592,6
Import	70 172,0	70 133,9	37 026,0
Afg'oniston	1 639,8	303,9	32 733,7
 Eksport	1 639,8	303,9	32 733,7
Import	-	-	-
Turkiya	85 808,8	47 379,1	31 029,4
 Eksport	21 406,0	10 422,3	18 541,3
Import	64 402,8	36 974,7	12 488,1
Qozog'iston	40 998,8	21 688,2	22 560,1
 Eksport	31 237,7	13 950,6	17 953,1
Import	9 761,1	7 737,7	4 607,0
Islandiya	0,3	1,1	22 530,9
 Eksport	0,3	1,1	1,0
Import	-	-	22 529,9
Eron	5 436,6	13 920,0	20 264,4
 Eksport	1 771,2	5 933,6	8 209,4
Import	3 665,4	7 986,4	12 055,1
Belarus	4 723,0	17 027,1	18 124,8
 Eksport	1 382,2	1 994,5	3 484,7
Import	3 340,9	15 032,6	14 1640,1

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Germaniya	6 873,3	27 818,0	16 816,6
	<i>Eksport</i>	1 425,0	724,2	705,4
	<i>Import</i>	5 448,3	27 093,8	16 111,2
	Turkmaniston	7 534,5	8 056,1	7 358,6
	<i>Eksport</i>	2 913,3	1 883,4	1 490,3
	<i>Import</i>	4 621,2	6 172,7	5 868,3
	Litva	2 375,5	5 376,9	3 278,0
	<i>Eksport</i>	197,2	951,9	165,7
	<i>Import</i>	2 178,3	4 425,1	3 112,4
	Iroq	428,5	1 379,5	3 028,0
	<i>Eksport</i>	428,5	1 379,5	3 009,9
	<i>Import</i>	-	-	18,1
	Hindiston	6 200,6	1 899,6	2 154,7
	<i>Eksport</i>	165,2	984,5	559,3
	<i>Import</i>	6 035,4	915,2	1 595,4
	Niderlandiya	224,1	905,7	1 627,5
	<i>Eksport</i>	1,7	6,8	17,9
	<i>Import</i>	222,4	898,9	1 609,6
	Tojikiston	2 331,8	14 192,3	1 500,9
	<i>Eksport</i>	2 077,3	14 181,5	1 500,9
	<i>Import</i>	254,5	10,8	-
	Ukraina	2 311,4	991,8	1 206,9
	<i>Eksport</i>	1 098,3	208,4	704,9
	<i>Import</i>	1 213,1	783,4	502,0
	Italiya	242,3	2 188,4	1 193,1
	<i>Eksport</i>	23,4	188,4	571,3
	<i>Import</i>	218,9	2 000,0	621,8
	Ispaniya	317,2	595,6	1 171,3
	<i>Eksport</i>	23,6	65,9	388,6
	<i>Import</i>	293,6	529,7	782,7




XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI





(2024- yil yanvar-avgust,
mln AQSH doll.)*

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushga Tuproqqal'a tumani 26,5 % ulush yoki 142,0 mln AQSH dollari, eng quyi ulushga esa Yangiariq tumani 2,3 % ulush yoki 12,0 mln AQSH dollari bilan ega bo'ldi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 32,2 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-avgust oyida viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan jami TSAdagi ulushi 67,8 % ni tashkil etdi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-avgust oyi holatiga ko'ra, 172,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 82,7 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 89,7 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)


Rossiya – 22,3		Ukraina– 0,2	
Qozog'iston – 4,2		Qirg'iz Respublikasi – 0,2	
Belarus – 3,4		Ozarbajjon – 0,2	
Turkmaniston – 1,4		Moldova – 0,03	
Tojikiston – 0,3		Armaniston – 0,01	



Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (22,3 %), Qozog'iston (4,2 %) hamda Belarus (3,4 %) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING YEOIIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 160,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 82,8 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 77,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



XORAZM VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 156 taga yetdi va ular tomonidan 239,3 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	209 163,5	239 264,9	123,6	114,4	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	92 622,6	133 996,9	177,7	144,7	44,3	56,0
Ichimliklar va tamaki	1 296,3	366,9	539,5 m.	28,3	0,6	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 190,5	3 126,6	97,6	98,0	1,5	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 112,1	2 315,8	73,6	109,6	1,0	1,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1 123,4	-	-	-	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 505,7	661,5	235,7	43,9	0,7	0,3
Sanoat tovarlari	74 991,2	78 672,3	96,3	104,9	35,9	32,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	437,9	455,8	2,4 m.	104,1	0,2	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	25 905,4	6 724,6	115,3	26,0	12,4	2,8
Xizmatlar	7 101,8	11 821,2	83,7	166,5	3,4	4,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,1 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (56,0 %), sanoat tovarlari (32,9 %) va turli xil tayyor buyumlar (2,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

XORAZM VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-avgust)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	133 996,9	144,7
Sabzavotlar va mevalar	116 733,6	137,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 096,1	2,4 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	122,7	69,6
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	31,0	26,8
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	10,4	7,4
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,1	47,0
Ichimliklar va tamaki	366,9	28,3
Ichimliklar	366,9	28,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 126,6	98,0
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	2 044,5	88,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	857,7	147,6
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	186,5	102,7
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	30,3	27,6
Metall rudalari va metall parchalari	7,5	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 315,8	109,6
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 315,8	109,6
Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	1 123,4	-
O'simlik moylari va yog'lar, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1 123,4	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	661,5	43,9
Bo'yoqlar va taninlar	330,7	109,1
Noorganik kimyoviy moddalar	259,6	51,1
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	45,8	49,2
O'g'itlar	23,2	-
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,3	1,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,9	0,4


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	78 672,3	104,9
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	72 371,4	111,6
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	5 109,7	55,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	1 090,9	171,5
Boshqa metall buyumlar	75,6	38,7
Rezina buyumlar	8,0	3,1 m.
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	6,6	27,4
Quyma temir va po'lat	5,9	-
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	4,1	60,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	455,8	104,1
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	200,3	137,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	108,8	69,3
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	64,4	179,4
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	57,7	2,3 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	23,5	36,8
Metallni qayta ishlash uskunalar	1,1	25,3 m.
Turli hil tayyor buyumlar	6 724,6	26,0
Kiyim va kiyim aksessuarlari	6 020,9	29,0
Oyoq kiyimlari	490,2	15,0
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	110,0	23,1
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	83,5	5,4 m.
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunalar	14,7	53,3
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	3,1	0,8
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	2,2	0,2

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-avgust oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi 34,6 % ni tashkil qildi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, Rossiya, Afg'oniston, Turkiya, Qozog'iston, XXR va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,4 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Pokiston	54 610,6	73 465,4	9,5 m.	134,5	2	1
Rossiya	55 465,6	55 712,6	92,6	100,4	1	2
Afg'oniston	303,9	32 733,7	18,5	107,7 m.	22	3
Turkiya	10 422,3	18 541,3	48,7	177,9	6	4
Qozog'iston	13 950,6	17 953,1	44,7	128,7	5	5
Xitoy	7 243,9	9 592,6	93,5	132,4	7	6
Eron	5 933,6	8 209,4	335,0	138,4	8	7
Belarus	1 994,5	3 484,7	144,3	174,7	11	8
Iroq	1 379,5	3 009,9	3,2 m.	2,2 m.	14	9
Tojikiston	14 181,5	1 500,9	6,8 m.	10,6	4	10
Turkmaniston	1 883,4	1 490,3	64,6	79,1	12	11
Qirg'iz Respublikasi	26 335,8	840,9	109,2	3,2	3	12
AQSH	664,2	814,7	6,0 m.	122,7	20	13
Ozarbajjon	549,8	795,3	92,8	144,7	21	14
Germaniya	724,2	705,4	50,8	97,4	18	15
Ukraina	208,4	704,9	19,0	3,4 m.	24	16
BAA	182,3	654,8	52,1	3,6 m.	26	17
Polsha	3 160,7	641,8	4,9 m.	20,3	9	18
Italiya	188,4	571,3	8,1 m.	3,0 m.	25	19
Hindiston	984,5	559,3	6,0 m.	56,8	16	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, mln.AQSH doll.)*



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Shovot tumani 12,8 % bilan 30,7 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiariq tumani 2,8 % bilan 6,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-avgust oyida 94,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 116,4 foizga yoki 13,3 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (48,5 %), Afg'oniston (26,6 %), Qozog'iston (12,6 %) hamda Rossiya (9,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 116,1 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 37,4 foizga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 48,5 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi qiymatga nisbatan)

Dukkakli sabzavotlar 87 847,0 ming AQSH dollari 16 459,5 tonna  75,7 %	Karam 5 289,7 ming AQSH dollari 24 035,8 tonna  4,6 %	Pomidor 2 631,6 ming AQSH dollari 2 602,9 tonna  2,6 %	Piyoz va sarimsoq 4 227,1 ming AQSH dollari 20 341,4 tonna  3,6 %
Sabzi 2 283,8 ming AQSH dollari 9 698,0 tonna  2,0 %	Uzum 1 623,4 ming AQSH dollari 1 582,6 tonna  1,4 %	Bodring 364,6 ming AQSH dollari 483,3 tonna  0,3 %	Olma 672,0 ming AQSH dollari 1 647,8 tonna  0,6 %
Sitrus mevalar 211,7 ming AQSH dollari 193,2 tonna  0,2 %	Qovun-tarvuz 2 511,4 ming AQSH dollari 7 809,8 tonna  2,2 %	O'rik 5 162,4 ming AQSH dollari 4 845,1 tonna  4,4 %	Boshqa meva va savzavotlar 3 227,0 ming AQSH dollari 4 311,3 tonna  2,8 %



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-avgust)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	11 446,4	56 271,9	48,5
 Afg'oniston	5 209,9	30 857,9	26,6
 Qozog'iston	51 827,6	14 582,7	12,6
 Rossiya	21 379,5	10 663,3	9,2
 Iroq	1 362,7	1 550,8	1,3
 Eron	429,0	559,5	0,5
 Ukraina	831,7	543,4	0,5
 BAA	633,7	407,0	0,4
 Polsha	207,2	176,5	0,2
 Turkiya	66,0	79,2	0,1
 Ozarbayjon	40,2	78,9	0,1
 boshqa davlatlar	531,9	280,4	0,2

* qiymat ifodasidan




2024- yil yanvar-avgust oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 48,5 % i), bu ko'rsatkich Afg'oniston eksport hajmidan 82,4 % ga ko'p.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 11 821,2 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 4,9 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 66,5 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (52,4 %), transport (7,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (20,8 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (19,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




XORAZM VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-avgust oyida import hajmi 296,0 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 76,7 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (49,6 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (28,6 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (8,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)





XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	385 771,9	296 041,5	110,4	76,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	141 801,0	146 890,7	107,2	103,6	36,8	49,6
Ichimliklar va tamaki	164,7	354,1	165,2	215,0	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29 259,7	23 900,7	121,1	81,7	7,6	8,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7 851,8	4 483,4	193,2	57,1	2,0	1,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 307,5	1 483,3	180,8	64,3	0,6	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	15 304,4	15 643,3	90,3	102,2	4,0	5,3
Sanoat tovarlari	18 692,9	12 264,0	74,4	65,6	4,8	4,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	160 768,8	84 673,9	122,1	52,7	41,7	28,6
Turli xil tayyor buyumlar	9 621,2	6 348,1	70,3	66,0	2,5	2,1



XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust)

XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	146 890,7	103,6
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	131 714,5	102,2
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	7 031,4	112,3
Don va ularning mahsulotlari	3 871,1	119,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	2 610,3	133,1
Sabzavotlar va mevalar	762,6	168,5
Tirik hayvonlar	435,1	130,3
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	307,6	82,3
Baliqlar (dengiz sutemizuvchilari emas), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suv umurtqasizlari va ulardan tayyorlangan preparatlar	74,0	-
Go'sht va go'sht mahsulotlari	72,2	-
Turli xil ovqatlar va dorilar	12,0	5,2
Ichimliklar va tamaki	354,1	2,2 m.
Ichimliklar	354,1	2,2 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	23 900,7	81,7
Yog'och mahsulotlari	21 696,4	81,7
To'qimachilik tolalari	1 389,2	57,9
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	279,2	17,9 m.
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	277,4	2,1 m.
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	246,7	5,1 m.
Qog'oz xamiri va makulatura	7,0	122,8
Metall rudalari va metall parchalari	3,8	30,6 m.
Tabiiy kauchuk	1,1	1,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	4 483,4	57,1
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4 290,1	58,5
Ko'mir, koks va briketlar	137,2	26,5
Gaz, tabiiy va sun'iy	56,2	-
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1 483,3	64,3
O'simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 462,7	63,4
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	20,6	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	15 643,3	102,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	8 896,3	141,4
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1 807,4	110,3
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 151,2	127,3
Bo'yoqlar va taninlar	952,5	78,7
Organik kimyoviy moddalar	912,1	3,9 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	645,6	172,9
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	549,0	65,4
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	366,0	49,4
O'g'itlar	363,3	11,8


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	12 264,0	65,6
Yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	3 262,7	63,5
To'qimachilik iplari, matolar	2 495,7	84,6
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	2 171,2	94,2
Metall buyumlar	1 621,1	52,3
Rezina buyumlar	1 157,1	130,7
Quyma temir va po'lat	810,2	30,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	728,2	46,7
Rangli metallar	17,8	19,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	84 673,9	52,7
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	31 940,8	32,0
Boshqa transport vositalari	22 534,8	883,7 m.
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	10 668,3	51,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	9 485,8	48,0
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	6 295,2	44,0
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	2 332,1	48,3
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	887,3	97,4
Metallni qayta ishlash mashinalari	437,7	95,6
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	91,9	75,7
Turli xil tayyor buyumlar	6 348,1	66,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2 862,9	66,6
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 465,4	88,9
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	775,7	44,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	114,8	17,4
Poyabzal	50,3	51,9
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	43,0	3,7 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	31,1	148,5
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	4,8	188,5

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-avgust oyi natijalariga ko'ra MDH mamlakatlarining import ulushi 30,3 % ni tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oyida viloyatimiz 58 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, Rossiya, XXR, Islandiya, Germaniya, Belarus va Turkiya) jami importning 87,2 % ini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Braziliya	125002,0	91 895,0	101,0	73,5	1	1
Rossiya	41 791,9	63 590,8	105,2	152,2	3	2
Xitoy	70 133,9	37 026,0	99,9	52,8	2	3
Islandiya		22 529,9	-	-	-	4
Germaniya	27 093,8	16 111,2	5,0 m.	59,5	5	5
Belarus	15 032,6	14 640,2	4,5 m.	97,4	6	6
Turkiya	36 974,8	12 488,1	57,4	33,8	4	7
Eron	7 986,3	12 055,1	2,2 m.	150,9	7	8
Turkmaniston	6 172,7	5 868,3	133,6	95,1	9	9
Qozog'iston	7 737,7	4 607,0	79,3	59,5	8	10
Litva	4 425,1	3 112,4	2,0 m.	70,3	13	11
Niderlandiya	898,8	1 609,7	4,0 m.	179,1	25	12
Hindiston	915,1	1 595,4	15,2	174,4	24	13
Koreya Respublikasi	2 709,4	987,9	123,6	36,5	17	14
Ispaniya	529,7	782,7	180,4	147,8	28	15
Italiya	2 000,0	621,9	9,1 m.	31,1	19	16
Shveytsariya	4 759,3	552,9	5,6 m.	11,6	11	17
BAA	3 997,0	513,4	46,6 m.	12,8	14	18
Finlyandiya	3 748,7	511,0	-	13,6	16	19
Pokiston	271,9	510,7	117,9	187,8	31	20

XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.


Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani 42,5 % bilan 125,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangibozor tumani 0,7 % bilan 2,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-avgust oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari (tovarlari) hajmi 12,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,6 % ni tashkil qilib, importning umumiy hajmidagi ulushi 4,1 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust)

3 711,3 ming AQSH doll.
ulushi – 30,3 %



Rossiya

2 155,6 ming AQSH doll.
ulushi – 17,6 %



XXR

1 473,5 ming AQSH
doll. ulushi – 12,0 %



Germaniya

1 332,5 ming AQSH doll
ulushi – 10,9 %



Turkiya

1 023,1 ming AQSH
doll. ulushi – 8,3 %



Turkmaniston



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (3,3 mln AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (2,5 mln AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari (2,2 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (1,6 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.